



## TURKISTON FOTOAFSONASI- TARIX, VAQT, XOTIRA

---

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Tarix fakulteti o'qituvchisi:*

***O'ralova Malika***

*Tarix fakulteti 2- kurs 203- guruh talabasi*

***Bo'rixonova Mahfuza Abdiali qizi***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada birinchi o'zbek fotografi hamda kinematografi hayoti va ijodi yoritib berilgan. Xudoybergan Devonov nafaqat O'zbekistonda balki O'rta Osiyodagi birinchi fotograf hamdir!

**Kalit so'zlar:** fotografiya, kinematografiya, Pate, Zot.

**Annotation:** This article describes the life and work of the first Uzbek photography and cinematographer.

**Keys word:** photography, cinematography, Pate, Zot

**Kirish:** Yurtimizda kino, fotografiya san'atining paydo bo'lishi va rivojlanishi o'zbek madaniyati hamda san'atining yirik namoyondalari, birinchi o'zbek kino-operatori, birinchi fotografi Xudoybergan Devonov nomi bilan bog'liq. Uning bundan deyarli 100 yil oldin suratga tushirilgan tasmalari, fotosuratlari ko'zimiz oldida tarixni jonlantirdi. Xudoybergan Devonovning ijodi bugun ham san'atkorlar uchun tajriba maktabi bo'lib kelmoqda. Nafaqat, O'zbekiston balki, butun O'rta Osiyodagi mashhur fotograf hisoblanadi.

Xudoybergan Devonov 1879- yili Xiva xonining kotibi Nurmuhammad devon oilasida dunyoga kelgan. Xudoybergan Devonov yoshligidanoq bilimga chanqoqligi bilan o'z tengdoshlaridan ajralib turgan. Olti- yetti yoshidayoq ilm-fanga, san'atga mehr qo'ygan. Eski maktabda o'qib yurgan kezlari dayoq arab, fors tillarini mukammal o'rgangan. She'riyatga qiziquvchan Xudoybergan Devonov Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Ahmad Donish asarlarini sevib mutolaa qilgan. Tirishqoqligi tufayli tez orada rus tilini, o'sha paytda taqdir taqazosi bilan Xiva yaqinidagi "Oqmasjid" qishlog'ida yashagan nemislardan esa nemis tilini o'rganib olgan. Yangilikka intiluvchan Xudoybergan Devonov shu qishloqda istiqomat qiluvchi nemis hunarmandi Vilgilem Penner bilan tanishib, uning ishlari bilan qiziqib qolgan. Bu hunarmandni xivaliklar Panor buva deb chaqirishadi. Panor buva Xudoyberganni o'z uyiga boshlab borib, unga g'alati bir apparatni ko'rsatadi, uning mo'jizalari haqida gapirib beradi. Keyin uni o'sha "Zot" fotoapparti qarshisiga



o`tkazib, suratga tushuradi. Xudoybergan suratga tushurishni o`rganib olgach, unga shu fotoapparatni sovg`a qiladi va oq fotiha beradi. U 1903- yildan boshlab mustaqil ravishda Xivaning ko`ko`par minoralarini, zamondoshlarini suratga tushira boshlaydi. Xudoybergan Devonov o`sha vaqtlarda soatsozga shogirdlikka tushgan va shu asnoda, ko`plab musiqa asboblarin chalishni o`rgangan. Bog`dorchilikka ham qiziqgan va atirgullarning 40 ga yaqin turini bog`ida o`stirgan. Ammo Xudoybergan Devonovning taqdiri fotografiya va kinematografiya sohasida nom qozonish yozilgan edi.

1907- yilda bir guruh xivalik amaldorlar Peterburg safariga otlanishadi. Ular rus shahrida bo`ladigan tantanalarni fotosuratlarda aks ettirish uchun suratkash Xudoyberganni ham safarga birga olib boradilar. Xudoybergan Devonov Peterburgda endigina paydo bo`lyotgan foto, kino san`ati bilan qiziqib, ikki oy davomida uning sirlarinni puxta o`rganadi. Bu safar 29 yoshini qarshilagan xorazmlik yigit uchun katta ahamiyat kasb etadi. U Peterburgdan Xorazmga Fransiyaning ``Pate`` kino apparati, grammafona va fotoapparatlar bilan qaytadi. Xudoybergan Devonov safar natijalarini to`g`risida shunday degan: ``1908- yilda Moskvaga borib fotoapparat sotib oldim va bir oy mobaynida o`rgandim. Va faoliyatimni Xivada davom ettirdim``. O`z yurtining dehqonchilik ishlari, tabiat manzaralari va shaharning diqqatga sazovor joylarini kinolentaga tushirib, hamshaharlariga namoyish eta boshlaydi. Bu o`zbek kinematografiyasining yaratishda birinchi qutlug` qadam edi. Xudoybergan Devonov ``O`rta Osiyo me`moray yodgorliklari``, ``Turkiston ko`rinishlari``, ``Xiva va xivaliklar`` kabi qisqa filmlar asoschisidir. Devonov ushbu kinolarida vatanparvarlik, ma`rifatparvarlik, inson-qadr qimmatini va shu kabi unsurlar ilgari surilgan. Xorazm madaniyati va urf-odatini haqida minglab fotosuratlar ishlangan. Shu bilan birga Asfandiyorxonni oq poshsho Nikolay II bilan tanishtirgani 1910- yilning oxirida Peterburgga borishgan. Ya`ni Asfandiyorxonga yo`lboshchilik qilgan.[2] Shu asnoda, Xudoybergan Devonov bir qancha fotolentalar olganligi ta`kidlanadi. Xudoybergan Devonovning san`atida Xivaning shaharlari va me`moriy inshootlari, xalq sayllari, darvozalari alohida ahamiyat kasb etadi. Asfandiyorxon va Muhammad Rahimxonning maxsus fotografiya desak, ham mubolag`a bo`lmaydi.[3] Inson taffakurining qudrati bilan vujudga kelgan fotografiyaning O`rta Osiyoga, xususan o`zbek diyoriga kirib kelganiga 130 yil bo`ldi.[4]

Xivada ta`lim- tarbiya texnikumi ish boshlagan davrda Xudoybergan Devonov shu texnikum qoshida o`z mablag`i hisobiga foto va kino havaskorlari to`garagni tashkil etgan. Shogirdlarini atrofga to`playdi. Sur`atlar va kinosyujetlarning xalqchil, ma`nodor bo`lishiga alohida e`tibor bergan. Shuning uchun ham u yaratgan syujetlar malakali mutaxassislar tomonidan munosib baholanadi.



Markaziy Osiyo birinchilaridan bo`lib kino sohasiga qo`l urgan san`atkor tasvirga olgan lavhalarda qahramonlar obyektini sezgani, nigohini, yurish-turishini o`zgartirgani, ya`ni sun`iy harakat qilgani bilinmaydi. E`tiborli tomoni shundaki, hali o`sha davr odamlari orasida sur`atga tushish shaytonning ishi degan aqida hukmron sharoitda kinoapparat oldiga insonlarni erkin harakat qilishga o`rgatgani, odatlantira olgani uning nafaqat tajribali balki bilimdon rejissiyor ham bo`lganini tasdiqlaydi. Endigina kino san`ati dunyoga kelyotgan, uning ifoda etish imkoniyatlari kurtak otayotgan paytlarda Xudoybergan Devonov navqiron san`atning ijodiy uslublaridan samarali foydalana olganligi kishini hayratlantiradi.

Kino ustasining 4 ta fotoapparat va bitta ``Pate`` kinoapparati bilan yaratilgan 2500 ta fotosur`ati, 500 metr dan ortiq kino tasmlari XIX asrning oxiri va XX asrning 30- yillarigacha bo`lgan davrning barcha sohalarida ko`z oldimizda gavlantiradi. Bu tarix lavhalari avlodlarga bebaho mulk bo`lib qoldi. [5]

Ming afsuslar bo`lsinki, shunday fidoyi inson, noyob san`atkor, taraqqiyparvar arbob sobiq tuzumning nohaqliklari, adolatsizligi qurboni bo`ldi. 1937-yil 17- avgustda ``Xalq dushmani, millatchi`` , deya qamoqqa olindi. Qatag`on qurboniga aylandi. Xudoybergan Devonov 1940- yil Toshkentning Zangiota qishlog`ida otib o`ldirildi. 1958- yilda esa Xudoybergan Devonovning nomi oqlanib, aybsiz deb topildi.[6] Mustaqillik yillarida esa Xiva shahri ko`chalariga Xudoybergan Devonov nomi berildi va haykallar o`rnatildi. Xudoybergan Devonov uyi — Xorazm viloyati, Xiva shahridagi me`moriy yodgorlik, XX asr boshida qurilgan va Xiva shahridagi Yangi turmush mahalla fuqarolar yig`inida joylashgan. Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi tasarrufida[7]. Xudoybergan Devonovning serqirra hayoti va ijodi hali hamon avlodlar yodida yashab qolaveradi !

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ``Xudoybergan Devonov`` O`zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Erkin Madrahimov: ``Chaqmoq`` asari
3. ``Jahon adabiyoti`` jurnali, 2010-yil, 9-son.
4. Naim Karimov ``Xudoybergan Devonov ilk o`zbek fotografi``; Toshkent-2021
5. „ХУДОЙБЕРГАН ДЕВОНОВ (Б.Ирзаев, Ю.Раҳмонова. Хоразм вилояти Хотира китоби, 114-121 бет)“
6. „Xudoybergan Devonov - birinchi o`zbek fotografining boy ijodi va ayanchli qismati“ 2021 -yil 7- noyabr
7. „ХУДОЙБЕРГАН ДЕВОНОВ (Б.Ирзаев, Ю.Раҳмонова. Хоразм вилояти Хотира китоби, 114-121 бет)“